XALQ DEPUTATLARI QUYICHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 23-yanvar VII-21-4-10-140-K/26 Quyichirchiq tumani

Quyi Chirchiq tumanida 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladiganayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchikoeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 7-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437, 445, 452-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqib, Quyi Chirchiq tumanida 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash maqsadida, Xalq deputatlari Quyi Chirchiq tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining -sonli qarori bilan Quyi Chirchiq tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkasi 1 gektar yer uchun 43,5 mln. so‘m, jismoniy shaxslarning (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun, shuningdek, jismoniy shaxslarga berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari mustasno)1 kv.m yer uchastkalariuchun soliq stavkasi 450,8 so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Isroilov) va tuman soliq inspeksiyasi (U.Atabayev) tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i, suv resurslari hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlari stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va kelgusi yil uchun belgilangan tuman mahalliy byudjeti prognozidan kelib chiqib, kiritilgan takliflari inobatga olinsin.

3. Quyidagilar qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

- Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar bo’yicha tuman kesimida yer solig’i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar **1- ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksining 445-moddasi bilan tasdiqlanadigan stavkalar o‘zgartirishsiz qoldirilsin.

5. Xalq deputatlari Quyi Chirchiq tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-011-10-140-K/24-sonli qarori 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Tuman hokimligi ushbu qaror bilan 2026-yilda tuman bo‘yicha yuridikva jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soliqlari, suv resurslari hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlari bo‘yicha belgilangan soliq stavkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida va tuman hokimligining rasmiy veb saytida rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari K.Uskanbayev, tuman soliq inspeksiyasi (U.Atabayev) hamda Xalq deputatlari Quyi Chirchiq tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Ibashov) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **USMANOVA YAYRA ONGAROVNA**

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2026-yil 23-yanvardagi
VII-21-4-10-140-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar bo’yicha tuman kesimida yer solig’i stavkalari uchun 2026 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig’i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo’yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig’i stavkasi 2026 yil uchun (ming so’mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig’i stavkasi 2026 yil uchun (so’mda)
1	Abay MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
2	Beruniy MFY	0,99	4498.99	0,98	441.78
3	Beshkent MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
4	Bog‘iston MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
5	Chaqmoq MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
6	Chinobod MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
7	Do‘stlik MFY	0,99	4521.83	0,98	441.78
8	Dustlik-1 MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
9	Galabotir MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
10	Gul MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
11	Ibrat MFY	1,21	5526.68	1,30	586.04
12	Jumag‘ul MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
13	Ko‘ksaroy MFY	0,99	4521.83	0,98	441.78
14	Kushek MFY	0,99	4521.83	0,98	441.78
15	Madaniyat MFY	0,99	4521.83	1,00	450.80
16	Mashrab MFY	1,3	5526.68	1,30	586.04
17	Mevazor MFY	0,88	4019.40	0,90	405.72
18	Ming Chinor MFY	1,05	4795.88	1,00	450.80
19	Mirobod MFY	1,21	5526.68	1,30	586.04
20	Navqiron MFY	1,21	5526.68	1,30	586.04
21	O‘jakent MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
22	Oydinobod MFY	0,99	4521.83	1,00	450.80
23	Paxtachi MFY	0,96	4384.8	0,95	428.26
24	Paxtazor MFY	1,21	5526.68	1,20	540.96

25	Sergeli MFY	1,21	5526.68	1,20	540.96
26	Shodlik MFY	1,15	5252.63	1,10	495.88
27	Surum MFY	1,21	5526.68	1,20	540.96
28	Tinchlik MFY	1,21	5526.68	1,20	540.96
29	To‘qboy MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
30	Uchchinor MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
31	Vatan MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
32	Xo‘ja MFY	0,99	4521.83	0,98	441.78
33	Xujapiskan MFY	0,91	4156.43	0,95	428.26
34	Yulduz MFY	1,10	5024.25	1,00	450.80

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)
1	Quyichirchiq t	0,90

Izoh: Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar bilan ishlash inspeksiyasi soliq to‘lovchilari bundan mustasno.